

## INTERNET, IJTIMOYIY TARMOQLAR VA ULARDAN YOSHLARNING ULARDAN FOYDALANISHI

**Bahronova Munisa**

O‘zbekiston Milliy Universteti Tarix fakulteti etnologiya  
antropologiya yo‘nalishi 2 –kurs magistranti

E-mail: [zafarzodaking@mail.ru](mailto:zafarzodaking@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlarning kirib kelishi va ularning yoshlar hayotida to‘tgan o‘rnini va hozirgi kunda yurtimiz yoshlarining qay maqsadda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini boshqa davlat yoshlari bilan o‘zaro solishtirgan holda ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ijtimoiy tarmoqlar, internet, o‘zaro aloqa, yoshlar. Telegram. Instagram

### ABSTRACT

In the article, the introduction of the Internet and social networks and their role in the lives of young people, and the purpose of using social networks today by the youth of our country, comparing them with the youth of other countries, will be revealed.

**Key words.** Social networks, communication, youthres. Telegram. Instagram

Internet va veb saytlar o‘ttiz yil ichida ajoyib global o‘shiga erishgan bo‘lsa , ijtimoiy tarmoqlar esa oxirgi o‘n yillikning o‘ziga hos burilishi bo‘ldi desak adashmagan bo‘lamiz, bu esa butun dunyo tadqiqotchilarining e‘tiborini aynan mana shu o‘shish sabablarini topishga qaratishga majbur qildi. Qisqa vaqt ichida yoshlar, kattalar va o‘smirlar bunday saytlarning eng ashaddiy foydalanuvchilari hisoblanishadi. Bir nechta tadqiqotlar natijalariga asoslanib Onlayn Ijtimoiy Tarmoqlar (OIT) sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu OIT saytlari yoshlar hayotiga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Hech qaysi rivojlangan yoki endi rivojlanib borayotag davlat yo‘qki fuqarolari ushbu tarmoqlardan yoki internetdan foydalanmasa, Facebook ning 2022 – yil yanavar oyidagi bergan ma‘lumotiga ko‘ra hozgi kunda uning oylik faol foydalanuvchilari soni 2.85 milliardni tashkil qiladi<sup>42</sup>, bu esa dunyo aholisning qarib 36,5 % ushbu tarmoqdan foydalanishini anglatadi. Dunyo aholisini 62,5 % esa interdan foydalanishadi, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari esa 2022 yil yanvar

---

<sup>42</sup> Facebook.com

oyida kuzatuv natijlariga ko‘ra 4,62 milliard ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bor. Bu butun dunyo aholisining 58,4 foizini tashkil etadi, garchi ijtimoiy tarmoq “foydalanuvchilari” yagona foydalanuvchilar bo‘lishi shart emasligini ta’kidlash joiz. Oxirgi 12 oy ichida global ijtimoiy tarmoq auditoriyasi 10 foizdan ko‘proqqa oshdi, 2021-yilda ijtimoiy tarmoqlarga 424 million yangi foydalanuvchi qo‘shilgan<sup>43</sup>. Bu raqamlar o‘shish ko‘lamini tushunish uchun qimmatli kontekstni taqdim etadi, ammo odamlar aslida ijtimoiy tarmoqlar va internetda nima qilayotganini tushunish uchun biz ma’lumotlarga chuqurroq kirib borishimiz kerak bo‘ladi.

Kepios tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi 10 yil ichida internetdan foydalanuvchilar soni ikki baravar ko‘paygan, 2012-yil boshidagi 2,18 milliarddan 2022-yil boshida 4,95 milliardga yetgan.

Shunday qilib, so‘nggi o‘n yillikda yillik o‘shish sur‘ati 8,6% ni tashkil qiladi. Aynan shunga uxshab yurtimizda ha internet foydalanuvchilari so‘ngi o‘n yillikda tubdan oshganligiga guvoh bo‘lamiz. Davlatlar aholisining internetdan foydalanishi buycha ro‘yhatini kuzatdigan bo‘lsak, Xitoy aholisining 48,80%, Hindiston aholisining 33.2% foydalanishi bilan birinchi va ikkinchi o‘rinlarni egallashgan. Markzaiy Osiyo davlatlaridan O‘zbekiston 39 , Qozog‘iston 43 o‘rinni egallashgan<sup>44</sup>.

Hususan yurtimiz hududida ham internet foydalanuvchilari kundan kunga oshib borayotganligi hech kimga sir emas 2008 – yil O‘zbekistonda internatdan 2 millon odam foydalangan bo‘lsa 2016 – yilda ularning soni 13 – millionga yetgan<sup>45</sup> . 2022 – yil 1 – yanvar ma’lumotlariga ko‘ra yurtimizdagi aholining 27,2 millioni internetdan foydalanadi, shulardan 25,3 millioni mobil aloqa orqali foydalanishadi<sup>46</sup>. Aholi maskanlarining 95 % mobil internet bilan qamarab olingandir, 54 % ho‘jaliklar yuqori darajadagi internetdan foydalanishadi. O‘zbekisston Respublikasi Oliy Majlisining Axborot siyosati va davlat organlarinida ochiqlikni ta’minlash masalalari qo‘mitasining 2022 – yil 31- yanvarda o‘tkazgan majlisida yurtimiz aholisining qanchasi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishlarini haqida ma’lumot berib o‘tishadi, Facebookdan 4.7 million, Instagramdan 3.7 million, LinkedIn dan 288 ming, Telegramdan 18 million , Odnoklassnikidan 16,7 million, Twitterdan 51.6 ming va Vkontaktedan 2,6 million aholi foydalanishadi<sup>47</sup>. Yuqoridagi ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining eng katta qismini yoshlar tashkil qiladi. Yoshlar asosan ijtimoiy tarmoqlardan axborot olish ,o‘zaro suhbat qo‘rish va ma’lumot almashtirish uchun muloqot qilishadi. Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan nafaqat bo‘sh vaqtlarini

<sup>43</sup> Canapé.ru

<sup>44</sup> Wikipedia.com

<sup>45</sup> Muhammad Amin Yahyo. Internetdagi Tahdidlardan himoya. Movrounnahr nashriyoti -2016.669-b 3-bet

<sup>46</sup> Rewiew.uz

<sup>47</sup> Xabardor.uz

o‘tkazish maqsadida shu bilan birga internet va tarmoqlardan pul topish maqsadida ham foydalanishadi. Ammo harbir narsaning foydasi bo‘lgani kabi uning salbiy tomonlari ham mavjud, hususan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli yot g‘oyalarni ham tarqatuvchi o‘rgimchak uyasidir. 2015 – yilga kelib buzg‘unchilik, ekstremizm va terrorizmni targ‘ib qiluvchi veb – saytlar soni 1000dan ortanligini ko‘rishimiz mumkun<sup>48</sup>. Yuqoridagi ma’lumotlardan shuni ko‘rishimiz mumkunki shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoyimizda yoshlarni onggini zaharlash turli buzg‘unchi g‘oylarning asosiy maqsadiga aylanib bormoqda. Yurtimizning Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyatiga olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsattiki 14 – yoshdan 30 – yoshgacha bo‘lgan fuqarolarning 22% turli ijtimoiy qatlamlardan foydalanishlarini aytib o‘tishgan, 28 % musiqa tinglashini, 33 % kitob o‘qishini va 11 % esa uyda dam olishini aytib o‘tishgan, yoshlarning 62 % Telegramda, 28 % Instagramdan foydalanishadi<sup>49</sup>. Lenhart.A va Madden. M ning 2007 – yilda Amerikada olib borngn tadqiqotlarida yoshlarning 91% asosan do‘stlari va yaqin oila a‘zolari bilan o‘zaro suhbat qurish uchun foydalanishini keltirishgan<sup>50</sup>, Mavritaniyalik yoshlarining 88.3% ham asosan ota – onasi va do‘stlari bilan suhbat qurishadi<sup>51</sup>, bizning yoshlarning ham 72 % ham asosan do‘stlari bilan suhbat qurish uchun foydalanishlarini aytib o‘tishgan<sup>52</sup>. Shuning bilan bir qatorda yoshlar turli veb saytlar va ijtimoiy tarmoqlardan nafaqat o‘zaro suhbat qurish uchun shu bilan bir qatorda o‘z faoliyatlari sohasida ham ilmiy izlanishlarni ham olib borishadi. Ijtimoiy tarmoqlar va turli saytlar o‘ziga nafaqat yoshlarni shu bilan bir qatorda kattalarni ham qaram qilib quygan. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotagan har 10 kishidan 9 tasi kun davomida o‘zining ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntiga bir marotaba kirar ekan. Bunday ijtimoiy tarmoqlardagi faollik nafaqat yurtimiz yoshlari uchun odatiy hol balki butun dunyo yoshlari uchun ham hayotiy turmush tarzining bir bo‘lagiga aylanib bo‘lgan. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar dunyoning istalagan nuqtasidan o‘zlari uchun ma’lumot olishlari do‘st ottirishlari mumkun, bunday qulayliklardan shuni anglashimiz mumkunki shiddatkorlik bilan biz yashab turgan dunyo o‘zgarimoqda yurtimiz yoshlari hm aynan mana shu o‘zgarishlardan va yangiliklardan ortda qolmaslik uchun harakat qilishmoqda.

<sup>48</sup> Internetdagi tahdidlardan himoya. Muhammad Yahyo 2016 – yil Movraunnahr 25 bet

<sup>49</sup> Dala tadqiqotlari. 2021 -2022 yillar Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyati.

<sup>50</sup> Lenhart, A. & Madden, M. (2007) Teens, Privacy, & Online Social Networks. Pew Internet and American Life Project Report. <http://pewinternet.org/Reports/2007/TeensPrivacy-and-Online-Social-Networks/1-Summary-of-Finmdings.aspx>

<sup>51</sup> Academy.edu IMPACT OF ONLINE SOCIAL NETWORKING ON YOUTH: CASE STUDY OF MAURITIUS Shayh Mohammad

<sup>52</sup> Dala tadqiqotlari 2021 – 2022 yil Toshkent shahari va Qashqadaryo viloyati

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)**

1. Muhammad Amin Yahyo. Internetdagi Tahdidlardan himoya. Movrounnahr nashriyoti -2016.669-b
2. Dala tadqiqotlari. 2021 -2022 yillar Toshkent shahri va Qashqdaryo viloyati.
3. Lenhart, A. & Madden, M. (2007) Teens, Privacy, & Online Social Networks. Pew Internet and American Life Project Report. <http://pewinternet.org/Reports/2007/TeensPrivacy-and-Online-Social-Networks/1-Summary-of-inmdings.aspx>
4. Academy.edu IMPACT OF ONLINE SOCIAL NETWORKING ON YOUTH: CASE STUDY OF MAURITIUS Shayh Mohammad
5. Wikipedia.com
6. Xabardor.uz
7. Canapé.ru
8. Rewiew.uz
9. Facebook.com
10. Academy.edu